



UDK: 331.42

SPORTCHILAR MEHNATINI TASHKIL QILISHNING DOLZARB MASALALARI

ВАЖНЫЕ ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СПОРТСМЕНОВ

IMPORTANT ISSUES OF THE ORGANIZING ATHLETES' ACTIVITY

Raxmonov Azizbek Abdullajonovich ¹

Аннотасија

Sportchilar mehnatini tashkil qilish hozirgi zamon talabi, sabab to'g'ri tashkil qiligan ish samarasi yuqori bo'lishi o'z tasdig'ini topdi. Sportda yuqori natijaga erishish uchun eng avvalo mehnatni to'g'ri tashkil qilish kerak, bunda sportchilar, murabbiylar, menejerlar va sport mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonolar muhim ahamiyat kasb etadi. Xech bir soha davlatni dunyoga sport kabi tez tanita olmaydi. Sportchilar mehnatini tashkil qilishda xar hil vosita va usullar, vazifalar mavjud. Bunda eng avvalo moddiy va ma'naviy rahbatlantirishga katta e'tibor qaratish kerak, bu esa o'z navbatida sportchilarni qiziqishini va ishtiyoqini oshirishga hizmat qiladi va sportdagi natijalarni yaxshilanishiga hizmat qiladi.

Аннотация

Организация труда спортсменов является современным требованием, и подтверждено, что эффективность труда при его правильной организации высока. Для достижения высоких результатов в спорте, прежде всего, необходимо правильно организовать работу, в которой большое значение имеют спортсмены, тренеры, руководители и предприятия, выпускающие спортивную продукцию. Никакая другая сфера не может представить страну миру так быстро, как спорт. Существуют различные инструменты, методы и задачи в организации работы спортсменов. В первую очередь необходимо уделять большое внимание материальному и моральному стимулированию, что в свою очередь способствует повышению интереса и энтузиазма спортсменов и улучшению результатов в спорте.

¹ Jismoniy tarbiya va sport fakulteti dekani. ALFRAGANUS UNIVERSITY. Toshkent, O'zbekiston. e-mail: uzshka-bek@mail.ru. ORCID: 0009-0000-6199-2670

Annotation

The organization of labor of athletes is a modern requirement, and it is confirmed that the efficiency of labor with its proper organization is high. To achieve high results in sports, first of all, it is necessary to properly organize the work in which athletes, coaches, managers and enterprises producing sports products are of great importance. No other field can introduce a country to the world as quickly as sports. There are various tools, methods and tasks in organizing athletes' activity. First of all, it is necessary to pay great attention to financial and moral encouragement, which in turn helps to increase the interest and enthusiasm of athletes and improve results in sports.

Kalit so'zlar: Sport, mehnatni tashkil qilish, menejer, sport menejmenti kontseptsiyasi, doping, psixo-fiziologiya.

Ключевые слова: Спорт, организация труда, менеджер, концепция спортивного менеджмента, допинг, психофизиология.

Keywords: Sport, activity organizing, manager, sports management concept, doping, psycho-physiology

Kirish

O'zbekistonda mustaqillik davrida jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarning samarali natijasidir. Mamlakatimiz qudratini belgilaydigan eng asosiy omillardan biri bu shu yurtda yuksak ma'naviyatli, jismonan va ruhan sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasidir. Jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifalar sifatida belgilanadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy ishlar natijasida, milliy ta'lim dasturiga binoan jismoniy tarbiya va sport sohasiga yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan, yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi.

Kelajakda yuqori marralarni egallashni oldinga maqsad qilgan O'zbekiston birinchi navbatda, sport kundan-kunga yuksalib, xalqaro maydonda munosib va salmoqli o'rin egallab bormoqda. Bugungi kunda nafaqat ishning o'zini, balki uning ko'zini biladigan yetuk mutaxassislar – o'zlari tanlagan sohaning mohir ustalari bo'lgan yosh avlodni jahon andozalariga mos ravishda tayyorlash zamon talabidir.[1]

Material-metodlar

Sportchilar mehnatini tashkil etish tekshirish, tahlil etish, hisoblash, tatbiq etish, nazorat, tashkiliy va texnikaviy ishlar qamrovidagi masalalar majmuini o'z ichiga olib, uning mazmuni quyidagilar bilan belgilanadi:

- Sportchilar uchun yuqori sifatli sport anjomlarini ishlab chiqarishni tashkil etish ishining rivojlanishi;

- sportchilarning madaniy-texnik darajasi o'sib borishi munosabati bilan mehnat taqsimoti takomillashtirilishidan;

- sportchilarni mehnatini tashkil etish va ijrochini uning fiziologik va antropometrik xarakteriga hamda estetik idrokiga mos bo'lgan sport asbob-uskunalar bilan ta'minlash, mehnatini tashkil etishda xizmat ko'rsatishni uzluksiz yaxshilab borishdan, mashg'ulotlar vaqtida sportchilarning quvvatini isrof bo'lishini yo'qotadigan eng samarali xizmat ko'rsatish tartiblarini joriy qilishdan;

- mehnat jarayonini takomillashtirish, mehnatning ilg'or usul va uslublarini joriy qilish, bunga sportchilarning yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi eng oqilona mehnat jarayonini loyihalash va tatbiq qilish, shuningdek, mehnatning ilg'or usul va uslublarini aniqlash;

- sportchilarni tanlash, tayyorlash, ularning malakalarini oshirishni tashkil etishni, bu jarayondagi ish shakllarini yaxshilash.

Sportchilarning mehnatini tashkil etish uchun bir qancha vazifalarning har birini bir-biriga bog'liq holda kompleks hal etish lozim. Shu munosabat bilan bozor iqtisodiyotining hozirgi sharoitida sportchilar mehnatini tashkil etishning asosiy metodlari quyidagilardan iborat:

1. Iqtisodiy. Bularga mehnat samaradorligini barcha chora va tadbirlar bilan oshirish, mehnat va moddiy resurslardan eng unumli foydalanish, sport mahsulotlarini ishlab chiqarish, sportga ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini oshirish va sport mahsulotlar sifatini yaxshilash.

2. Sanitariya-gigiena va psixo-fiziologik. Bularga sportchi va murabbiylarning sog'lig'ini muhofaza qilish, texnika xavfsizligini ta'minlash, butun ish vaqti davomida normal ishlash qobiliyatini ta'min etish maqsadida har jihatdan (kompleks ravishda) ularning ijtimoiy tuzilishi, jinsini va yoshini yetarli darajada hisobga olib, yaxshilab borish.

3. Ijtimoiy. Bularga sportchi va murabbiylarni har tomonlama va garmonik rivojlantirish, mehnatning mazmundorligi, yoqimlilik, uni bajarish bosqich va tartiblarining oddiyligiga erishish, ijodiylikni, mehnatni eng zarur hayotiy ehtiyojga aylantirish.

4. Tashkiliy. Bularga sportchilar mehnatini tashkil etishning sohalar, mutaxassislar va sport turlari bo'yicha namunaviy loyihalarini ishlab chiqish hamda sport inshootlarida xizmat ko'rsatishning namunaviy loyihalarini joriy qilish doirasini kengaytirish.

Munozara

Avvalo shuni anglash kerakki, menejment tushunchasi turli mamlakatlarda turlicha tushuniladi. Bu atama Amerika muhitidan kelib chiqqan va uning kontseptsiyasi Yevropa kontseptsiyasidan, ya'ni Chexiyadan ham farq qiladi. Chexiya Respublikasida menejment «boshqaruv» deb tarjima qilinadi [2]. Biroq, «boshqaruv» atamasi chet elda xuddi shu ma'noda ishlatiladi va shuning uchun qisman jarayonlarni boshqarish sifatida qabul qilinadi [3]. Menejment atamasini biz butun kompaniyani, ya'ni uning funktsional faoliyatini o'z ichiga olgan biznesni boshqarish deb keng ma'noda tarjima qilishimiz mumkin [2]. Keng ma'noda menejment atamasini tadbirkorlik faoliyatini boshqarish fani va san'ati sifatida tushunish mumkin.

Agar menejmentning barcha tushunchalarini tahlil qilsak, bu atamani uch kontsepsiya asosida tushunishimiz mumkin. Birinchi kontsepsiya menejmentni inson resurslari bilan ishlashga yo'naltirilgan soha sifatida. Buning yordamida kompaniyada belgilangan maqsadlarga erishish mumkin. Ikkinchi kontsepsiya menejerlar tomonidan bajariladigan o'ziga xos funktsiyalar. Bular menejer funktsiyasining bir qismi bo'lgan faoliyat - rejalashtirish, tashkil etish, etakchilik, kadrlar va nazorat qilish. Uchinchi va oxirgi kontsepsiya menejmentni o'rganish predmeti sifatida qabul qilinadi. Biroq, bular har doim nazariy yondashuvlar va protseduralar bo'lib, belgilangan maqsadga osonroq erishishga yordam beradi. Menejmentning asosiy vazifasi tashkilotning ishlashini ta'minlashdan iborat bo'lib, bu amalda asosan ushbu tashkilotning foydasini ta'minlashni anglatadi [4].

«Sport menejmenti kontseptsiyasi. Sport menejmenti jismoniy tarbiya va sport birlashmalari, uyushmalari, klublari, jismoniy tarbiya bo'linmalari, kooperativlarni har tomonlama boshqarish usuli sifatida tushunilishi mumkin, ular hech bo'lmaganda qisman biznesga yo'naltirilgan xulq-atvorga urg'u beradi. Bundan tashqari, bu mutlaqo to'g'ridan-to'g'ri biznes sohasida sport mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki pullik jismoniy tarbiya va sport xizmatlarini boshqarish usuli haqida.» [3]. Mamlakatimizda sport menejmentiga juda kam e'tibor qaratilgan. Ushbu sohaning yagona yo'nalishi va

xususiyatlari yo'q. Biroq, klassik menejmentga o'xshab, biz sport menejmentini uchta asosiy sohaga ajratishimiz mumkin:

- sport menejmenti ta'lim sohasi sifatida;
- sport menejmenti kasb sifatida;
- sport menejmenti ilmiy soha sifatida.

Bu sohalar o'zaro bog'langan va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, masalan, sport menejmenti sohasi rivojlantirishi uchun sportni boshqarish amaliyotiga asoslangan tadqiqot natijalari zarur.

Sportni tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan sport industriyasi yaratilgandan keyin sport menejmenti ta'lim yo'nalishlari qatoriga kiritila boshlandi. Shuning uchun maktablarda sport menejmenti kinesiologiya va iqtisodiyot, iqtisodiyot va biznes dasturlari kabi sohalar orasida tasniflandi [5]. Bu farq asosan turli mamlakatlarda turlicha bo'lgan tendentsiyalar bilan bog'liq. AQSH, Avstraliya va Yangi Zelandiyada ta'lim muassasalarida sport menejmentini o'qitish asosan kinesiologiya, inson harakati yoki dam olish faoliyatining kinetikasini o'rganish faoliyatiga to'g'ri keladi. Boshqa tomondan, Evropa mamlakatlarida sport menejmenti odatda iqtisodiyot bo'limlari yoki sport maktablarida o'qish sohasi sifatida taklif etiladi. Natijada sport menejmentining boshqa fanlar orasidagi o'rnini aniqlash qiyin. Sport menejmentining joylashuvi bilan bog'liq muammoni Chexiyadagi universitetlarda ham ko'rish mumkin, bu yo'nalishning bir qismi Iqtisodiyot va menejment o'quv dasturi doirasida, ikkinchi qismi esa jismoniy tarbiya va sport o'quv dasturi doirasida akkreditatsiyadan o'tganligi.

Ko'pgina mualliflar sport menejmentini turli yo'llar bilan kasb sifatida belgilaydilar. Chelladuray buni quyidagicha tariflaydi: «Bu sport sohasida ma'lum bir xizmatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va taqdim etish uchun yaratilgan insoniy va moddiy resurslarni, tegishli texnologiyalarni va mumkin bo'lgan hodisalarni muvofiqlashtirishga qaratilgan sohadir.» Sport menejeri «sport sohasida ma'lum bir xizmatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va taqdim etish uchun yaratilgan inson va moddiy resurslarni, tegishli texnologiyalarni hamda mumkin bo'lgan hodisalarni muvofiqlashtiradigan shaxs» [6]. Mualliflar o'zlarining shaxsiy qarashlarida sezilarli darajada farq qilsalar ham, ularning umumiy boshqaruv funktsiyalari va protseduralari muayyan, ya'ni sport kasb ekanligini inkor etmaydilar.

Natija

Dastlab antik davrda va qadimgi Olimpiya o'yinlarida sportchi e'tirof va shon-shuhratga ega bo'lishdan mahfaatdor bo'lgan masalan, bu bayram qo'shiqlari va she'rlarida uning nomi kuylanishida namoyon bo'lgan. Biroq, bugungi kunda professional sport deganda, o'z hayotini sportga to'liq bag'ishlash tushuniladi. Shunday

qilib, sportchi mashg'ulotlarga ko'p vaqt sarflaydi va sportga bog'liq barcha narsalar (regeneratsiya, musobaqalar, tayyorgarlik va boshqalar) bilan muntazam shug'ullanadi. Sportchining yaxshi natijasi uchun mukofot nafaqat medal balki moliyaviy rag'batlantirish, ommaviy axborot vositalari nazarida bo'lish, yangi homiylik shartnomalari va jamoatchilikning e'tirofi. Bugungi kunda sport antik davrda bo'lgani kabi ruh va tana jangi bo'lishni to'xtatdi, chunki motivatsiya rekordlarni buzmoqda va chegaralarni o'zgartirmoqda, moliyaviy rag'bat ham bunga o'z xissasini qo'shmoqda. [7].

Moliyaviy rag'batlantirish nafaqat sportchining ko'rsatkichlariga, balki ushbu sportning umumiy ommabopligiga ham bog'liq. Bugungi kunda qadimgi Yunonistondan farqli o'laroq sport ham reklamalar bilan bog'liq, ayniqsa televideniya ommaviy axborot vositalarida. 2016-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan Yozgi Olimpiada o'yinlari translyatsiyasi vaqtida o'n soniyalik reklama lavhasini translyatsiya qilish narxi 10 000 dan 55 000 AQSh dollarigacha bo'lgan [8]. Narxlar translyatsiyadagi reklamaning joylashishiga qarab o'zgarib turgan.

Daleki (2002) fikriga ko'ra, sportning tijoratlashuvi sportchilarning doping iste'mol qilishiga sabab bo'lgan omillardan biriga aylandi:

- sportchi yaxshi homiy tomonidan qo'llab-quvvatlanishi uchun dunyo sportchilari ichida o'z o'rniga ega bo'lishi kerak;
- sportchi mavjud homiylarni o'ziga jalb etish uchun ajoyib natijalarga erishishi kerak;

Xulosa.

Sportchilar mehnatini tashkil qilishda xar bir element va vositaga katta e'tibor qaratish lozim. Sportchilar sportda yuqori natijaga erishish uchun ularning mehnati to'g'ri taqsimlangan bo'lmog'i lozim. Aks holda foydadan ko'ra ziyoni ko'p bo'lishi mumkin.

Birinchidan sportchilar mehnatini tashkil qilishda murabbiylar tayyorlash va qayta tayyorlashga katta e'tibor qaratish kerak. Sportchilar bilan ilk va doimiy muomalada bo'ladigan inson bu murabbiydir.

Ikinchidan sportchilar yuqori natijaga erish uchun ularni mehnatini to'g'ri tashkil qilishda sport menejerlarini o'rni juda katta. Xar bir sportda menejer bo'lib, ular sportchilarni yuqori natija va yuqori maosh, yuqori sharoitda bo'lishlarini ta'minlashlari lozim. Agar sport menejerlari to'g'ri mehnatni tashkil qila olsa xech bir sportchi kelajakda moddiy qiyinchilikka duch kelmaydi.

Uchinchidan sportchilarni mehnatini tashkil qilishda ularning vitaminizatsiyasiga katta e'tibor qaratish kerak. Bundan tashqari doping masalasi ham sportchilarning mehnatiga yoki ijobiy, yoki salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bunung uchun xar bir sportda doping masalasi bo'yicha kerakli mutahassislar bo'lgani maqsadga muvofiq.

Yurtimizda Boks, Taekwando, Dzyudo kabi sport turlarida mehnatni to'g'ri taqsimlash va menejerlik ishlari yuqora darajada tashkil qilingan. Shuning uchun ham so'ngi yillarda bu sport turlarida sportchilarimiz dunyoda yuqori natijalar qo'lga kiritishmoqda.

Adabiyotlar:



1. Bakiyeva I.A., *Mehnatni tashkil etish va boshqarish. O'quv qo'llanma.* – T.: IQTISODIYOT, 2019. 18-100 b.
2. VODÁČEK, L., VODÁČKOVÁ, O., 2001. *Management: theory and practice. Extended Edition.* Prague: Management Press. ISBN 80-8594-394-8.
3. ČÁSLAVOVÁ, E., 2007. *Management in the physical education and sports* 1st Edition. Prague: Karolinum. ISBN 978-80-2460-050-5.
4. VEBER, J., 2000. *Management: fundamentals, prosperity, globalization.* 1st Edition. Prague: Management Press. ISBN 80-7261-029-5.
5. COSTA, C., 2005. *The Status and Future of Sport Management: A Delphi Study.* Journal of Sport Management, Vol. 1, No. 19, pp. 117–142.
6. CHELLADURAI, P., 1992. *Sport Management: Opportunities and Obstacles.* Journal of Sport Management, Vol. 2, No. 6, pp. 215–219.
7. NOVOTNÝ, J., 2011. *Sport in the economy.* 1st Edition. Prague: Wolters Kluwer Czech republic. ISBN 978-80-735-7666-0.
8. HIKLOVÁ, Z., 2000. *Ethics and sport.* 1st Edition. Prague: Karolinum. ISBN 80-7184-499-3.